


## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Huquq fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi   | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija  |
|--|--|
| <p data-bbox="190 400 595 922"><b>Anticor.Track: huquqni muhofaza qiluvchi organlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, oldini olish va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan jamoatchilik nazoratining innovatsion platformasini yaratish</b></p>  | <p data-bbox="703 357 1115 395"><b>Tadqiqot shakli:</b> Amaliy.</p> <p data-bbox="703 400 1128 438"><b>Ilmiy tadqiqot natijalari:</b></p> <ul data-bbox="636 443 2060 1536" style="list-style-type: none"><li>- huquqni muhofaza qiluvchi organlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash, baholash va oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy yondashuvlar, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik asoslari, jamoatchilik nazorati mexanizmlari hamda ochiq ma'lumotlardan foydalanish amaliyoti yuzasidan tahliliy hisobot tayyorlanadi;</li><li>- korrupsiyaviy xavf-xatar indikatorlari matritsasi, murojaatlar va anonim xabarlarni qabul qilish, tekshirish, tizimlashtirish va qayta aloqa berish tartiblari, shaffoflik indeksi hamda raqamli jamoatchilik nazoratining baholash mezonlari ishlab chiqiladi;</li><li>- Anticor.Track platformasining konsepsiyasi, funksional modullari, ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, texnik topshirig'i va axborot xavfsizligi talablari ishlab chiqiladi;</li><li>- murojaatlar, anonim xabarlar, ochiq ma'lumotlar, jamoatchilik fikri va ommaviy axborot vositalaridagi ochiq axborotlarni jamlash, tahlil qilish va risk-xaritada aks ettirish metodikasi yaratiladi;</li><li>- shaxsiy ma'lumotlar, xizmat sirlari va tergov-tezkor faoliyatga doir ma'lumotlar muhofazasini ta'minlagan holda korrupsiyaviy xavflarni vizuallashtiruvchi interaktiv risk-xarita, ma'lumotlar paneli (dashboard) va elektron monitoring mexanizmlari ishlab chiqiladi;</li><li>- axborotni jamlash, tahlil qilish, vizuallashtirish, onlayn xizmat ko'rsatish, masofaviy elektron monitoring va murojaatlarni qabul qilishga mo'ljallangan Anticor.Track dasturiy ta'minoti va veb-platformasi yaratiladi;</li><li>- platformada murojaatlarni qabul qilish, elektron ro'yxatga olish, mas'ul ijrochiga yo'naltirish, ijro holatini kuzatish, hisobot shakllantirish, ochiq ma'lumotlar bilan ishlash hamda vakolatli organlarga tahliliy axborot kiritish modullari joriy etiladi;</li><li>- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik kengashlari ishtirokida platforma pilot rejimida aprobatsiyadan o'tkaziladi, natijalar asosida takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi;</li></ul> |

---

- shaffoflik indeksi, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash, raqamli nazorat, jamoatchilik bilan muloqot va ochiq ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha o'quv kurslari dasturi, amaliy qo'llanma, testlar va imtihon-sinov savollari tayyorlanadi hamda chop etiladi;

- davlat organlari faoliyatida jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, korrupsiya xavflarini kamaytirish va murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga qaratilgan normativ-tashkiliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Natijalarni sinovdan o'tkazish.** Olingan natijalar manfaatdor huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik kengashlari ishtirokida pilot tarzida sinovdan o'tkaziladi, ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to'g'risida **Bosh prokuratura, Oliy sud, Ichki ishlar vazirligining** xulosasi olinadi.

**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o'quv qo'llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi

**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Bosh prokuratura, Oliy sud yoki Ichki ishlar vazirligining** qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.

---